

Siz – O'sh markazidasiz


TOP-13

mashg'ulot




Shaharda nimalar qilsa bo'ladi?

- Mamlakatdagi birinchi YUNESKO Butunjahon merosi obykti bo'lgan besh cho'qqili Sulaymon-Too tog'iga chiqish
- Sulaymon-Too g'orida joylashgan «Sulaymon-Too» tarixiy-arxeologik muzey majmuasini tomosha qilish
- Jayma bozorida savdolashib, gilam, taqinchoq, qirg'iz milliy liboslarini sotib olish
- Navoiy, Oqbo'yra (Ak-Buura) yoki Olimbek Dodxoh bog'larining soya-salqin xiyobonlarida sayr qilish
- Olimbek Dodxoh bog'idagi g'aroyib uch qavatli o'tov — Olimbek Dodxoh muzeyini suratga olish
- Farzandlaringiz bilan borsangiz, Navoiy bog'idagi kichik hayvonot bog'iga kirish



Shahar tashqarisida nimalar qilsa bo'ladi?

- Kerakli anjomlarni olib, yo'lboshchi bilan tog'larni zabt etish
- Dunyodagi eng katta yong'oqzor joylashgan «yong'oq jannati» — Arslonbob qishlog'iga borish. Qishloq yaqinida sharsharalar va manzarali kuzatuv maydonchalari ham bor
- Qoradaryo bo'yida joylashgan qadimiy O'zgan shahrini kashf qilish
- Aravonning «Samoviy tulporlari» — qadimiy qoyatosh rasmlarini suratga olish
- Chil-Ustun g'orlaridagi 350 million yillik stalaktit va stalagmitlarni tomosha qilish
- Qorasho'ro yoki Qirg'iz-Ota milliy bog'larida tog' havosidan bahra olish, otda sayr qilish va tabiat go'zalliklaridan zavqlanish
- Abshirsoy darasida qoyadan otilib chiqadigan noodatiy sharsharani ko'rish





Nima olib kelish mumkin?

- O'zgan guruchi
- Qirg'iz milliy liboslari
- An'anaviy kigiz qalpoq
- Panno yoki surat ko'rinishidagi quroqchilik san'ati namunalari



Nimalarni tatib ko'rish kerak?

- Tandir somsa
- Manti va mayda manti
- O'zgan guruchidan palov

